



O'zbek milliy raqs san'atining rivojlanish bosqichlari

Gulsanem Tursunova

**QDU, "San'atshunoslik" kafedrası
dotsenti**

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada o'zbek milliy raqs san'atining tarixiy ildizlari, uning rivojlanish bosqichlari hamda raqs san'atining bugungi kundagi o'rni haqida hikoya qilinadi. Qadimiy marosim va urf-odatlardan boshlangan raqs san'atining asta-sekin saroy, xalq va sahna ijrochiligi darajasiga qay tarzda ko'tarilganligi yoritiladi. Shu bilan birgalikda, hududiy raqs maktablari bo'lgan Farg'ona, Buxoro, Xorazmning o'ziga xos xususiyatlari, mustaqillik davrida milliy qadriyatlarimizning tiklanib borishi va zamonaviy raqs san'atining rivojlanish yo'nalishlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar:

O'zbek milliy raqsi, raqs san'ati, folklor, an'ana, Farg'ona raqsi, Buxoro raqsi, Xorazm raqsi, sahna madaniyati, milliy qadriyatlar, koreografiya

O'zbek milliy raqs san'ati xalqimizning boy madaniy merosining aynan ajralmas qismi hisoblanadi. Chunki u asrlar davomida shakllanib, xalqimizning turmush tarzi, urf-odatlari, estetik qarashlari va ruhiy dunyosini o'zida mujassam etadi. Raqs san'ati - nafaqat san'at turi bo'lib gina qolmay, balki tarixiy va madaniy axborot tashuvchisi sifatida ham muhim ahamiyatga egadir.

O'zbek raqs san'atining ildizlariga to'htaladigan bo'lsak, u qadimgi davrlarga borib taqaladi. Dastlabki ilk raqslar tabiat hodisalariga sig'inish, hosildorlikni oshirish, ov muvaffaqiyatini ta'minlash kabi marosimlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. O'sha davrdagi raqslar ko'proq ritual xarakterga ega bo'lib, oddiy harakatlar va ramziy ifodalar orqali bajarilib kelingan.

O'rta asrlarga kelib, raqs san'ati yanada rivojlanib bordi va saroy madaniyatining muhim qismiga aylandi. Bu davrda allaqachon professional raqqosalar shakllanib, raqs ijrochiligi mahorati oshib bordi. Raqs san'atida harakatlarning nafisligi, estetik go'zallik va musiqiy uyg'unlik kuchaydi. Raqslar asosan ko'proq tomosha va estetik zavq bag'ishlash vazifasini bajara boshladi.

Keyinchalik asosan hududiy raqs maktablarining shakllanib bordi.

O'zbek milliy raqs san'ati quyidagi uch asosiy maktab asosida rivojlangan:

1. **Farg'ona raqs maktabi** – mayinlik, nafislik va lirizm bilan ajralib turadi. Qo'l harakatlari yumshoq va ifodali.

2. **Buxoro raqs maktabi** – murakkab harakatlar, qo'l va barmoq o'yinlarining nozikligi bilan mashhur.

3. **Xorazm raqs maktabi** – jo‘shqinlik, keskin harakatlar va ritmik boylik bilan ajralib turadi.

Ushbu maktablar o‘ziga xos ijro uslublari orqali milliy raqs san’atining rang-barangligini ta’minlaydi.

XX asrga kelib o‘zbek raqs san’ati sahna ko‘rinishiga ega bo‘ldi. Professional ansambllar tashkil etildi, raqslar sahnalashtirilib, teatr va konsert dasturlariga kiritildi. Bu davrda raqs san’ati akademik asosda rivojlanib, koreografiya maktablari shakllandi.

Mustaqillik yillarida o‘zbek milliy raqs san’ati yangi bosqichga ko‘tarildi. Milliy qadriyatlarni tiklash, unutilgan raqslarni qayta jonlantirish va yosh avlodga yetkazish masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Xalqaro festivallar va tanlovlar orqali o‘zbek raqsi, o‘zbek folklore san’ati dunyo miqyosida tanila boshladi. “O‘zbek folklor san’atini yoshlar shuuriga singdirishda faol mehnat qilayotgan bugungi kun ansambllari dasturini o‘rganish, uni takomillashtirish muhim vazifalardan biridir. Ajdodlar merosining nodir namunalarini folklor-etnografik jamoalari, o‘z ijodlarida turfa xil ko‘rinishlarda namoyon etib folklor san’atini rivojlantirishga xissa qo‘shmoqdalar”.¹

Bugungi kunda o‘zbek raqs san’ati an’anaviy va zamonaviy uslublarni uyg‘unligida rivojlanmoqda. Milliy raqs elementlari zamonaviy sahna texnologiyalari bilan boyitilib, yangi ijodiy yo‘nalishlar yuzaga kelmoqda. Shu bilan birga, autentik uslublarni saqlab qolish ham dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

O‘zbek milliy raqs san’ati uzoq tarixiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan va bugungi kunda ham rivojlanishda davom etmoqda. U xalqning madaniy merosi sifatida nafaqat estetik ahamiyatga ega, balki milliy o‘zlikni anglash va uni saqlashda muhim vosita hisoblanadi. Kelgusida ushbu san’at turini yanada rivojlantirish, yosh avlodga yetkazish va xalqaro miqyosda targ‘ib qilish muhim vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Васильева-Рождественская М.В. Историко-бытовой танец – Учебное пособие М. Искусство, 1987.

2. Воронина И. Историко-бытовой танец – Учебное пособие М. Искусство, 2013.

3. Akmaljon Abdikhamidov. Representatives of the Uzbek National Dance Art. European Journal of Innovation in Nonformal Education Volume 3, No 11 | Nov - 2023 | Page | 5 <http://innovatus.es/index.php/ejine>.

4. Akmaljon Abdixamidov. BALETMEYSTERNING KO‘P QIRRALI ISTE‘DODI. "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal / <https://oac.dsmi-qf.uz>

5. Abdixamidov Akmaljon [BALETMEYSTER VA UNING IJODIY FAOLİYATI | Oriental Art and Culture](#)

6. U.Boltaboyeva, A.Taslimboyev, “O‘zbek raqs san’atining paydo bo‘lishi varivojlanish tarixi” 64-70 bb. “Lazgi raqsining shakllanish tarixi va tendensiyasi” konferensiyasi, 2024 y. 5-mart.

¹ U.Boltaboyeva, Pedagogikada ilmiy izlanishlar” jurnali, 3-to‘plam, 2-son, “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi ijrochiligi va sahna nutqi fanida ulardan foydalanish uslublari” maqolasi, 85-89 bb.

7. U.Boltaboyeva, Sharq va G'arb mutafakkirlari merosida yoshlar tarbiyasi masalalari. WORLD OF PHILOLOGY. Scientific Methodical Journal. Volume 5. Issue 2. 5 February 2026. 247-249-betlar.

8. U.Boltaboyeva, Pedagogikada ilmiy izlanishlar" jurnali, 3-to'plam, 2-son, "O'zbek xalq og'zaki ijodi ijrochiligi va sahna nutqi fanida ulardan foydalanish uslublari" maqolasi, 85-89 betlar.